

BOYSUN TARIXIY MANBALARDA

Mahmudov Mirsaid Mavlon o'g'li

Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi.

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7894659>

Annotatsiya. Ushbu maqola Boysunning tarixiy manbalar va asarlarda uchratishimiz mumkinligi haqida. Buyuk mutafakkitlar Firdavsiyning "Shohnomas"i, Gardiziyning "Zayn ul-axbor", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnomasi" va boshqalarning asarlarida Boysun toponomikasi haqida yozilgan. Aynan shu maqola shular to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: Boysun, Firdavsiyning "Shohnomas"i, Gardiziyning "Zayn ul-axbor", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnomasi".

Firdavsiyni maftun etgan yurt.

("Shohnoma" da -Boysun aymog'i ta'rifi)

IX asrda yashab ijod etgan fors-tojik mutafakkir shoiri Firdavsiy o'zining «Shoxnoma» asarida Boysun aymog'i haqida shunday yozib qoldirgan: «Munojotdan keyin Barzuni kafo(orqaga surib ketish)sari andok ravon ayladikim,to'qson bosh qadam orqasiga surib,to boshiga ko'tarib,taxtai zaminga andok urdikim, az farq to poshna yerga naqsh bog'ladi. Rustam Palang (arslon)yanglig' Barzu siynasida tog'dek ijlos(og'irlik) ko'rguzib, ul holatda xanjari taxmurasi devbandni ellofdan chiqarib, bo'g'ziga qo'ydi. Bu xanjarni darozligi o'ttiz ikki gaz, to'g'risi(kengligi) tabon yo otashkadan(quyoshdek) namurd shul'a berur edi. Xoxladimki,boshini tanidan judo qilgay, bir ovoz Rustam kulog'iga keldi. Dedikim "Ey Rustam,bahaqqi din vasin, qo'lingni andek saqla, Rustam nazar qilib, ko'rdikim, Barzuni onasi-Sheruya mardonavor, engil (erkakcha) kiygin. Rustam, Suhrob otini eshitib, Barzu siynasidan qaro yer ustiga xanjarni tashladi. Dedikim:

"Nechukdin Suhrobg'a o'g'il bo'ladi?".

Sheruya aytdi: "Ul kunekum, Suhrob bu jonibga, yuz kelturdi. Boysun degan aymoqdin meni kelturib va nikohiga akat (nikoh qilib) bog'lab erdi.

Va bu bozu band(bilak uzuk) va manga atom bergan anomga. Atom-Rustam yodnoma (esdalik) berib, ekan. Man sanga berdim. Agar o'g'il karomat qilsa (tug'ilsa), bozusiga(bilagiga)band etgil. Agar qiz farzand tug'ilsa, kokiliga bog'lagil. Men atom Rustamni ko'rib,jamoli jahon orasidan ko'zimni yoritib,yonib, bu yerlarga kelsam,u bozuband nishonasi birla izlarni topib olurman"-deb bu bozbandni omonat berib edi. Shoxvarim (erim) Suhrob Xudoyi taoloni taqdiri birla o'zlarini qo'llarida ajal sharbatni ichib, halok bo'ldi. Agar bobar qilmasalar, Bozbandni yechib ko'rsinlar..." Shox Rustamning naverasi

Bargunni onasi Boysunlik kelini Sheruya xonimni Boysun aymog'idan o'z tanlab kelin qilish qilgan ekan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy (XI asrning 90 yillarida Samarqandga tug'ilgan)ning "Chohar maqola" yoki «Majia'un navodir» asarida yozishicha: «Firdavsiy «Shoxnomani» yozayotgan vaqtida Ali Daylam kotibi, Abu Dular roviysi, Tus hokimi Qutayba esa homiysi bo'lib, firdavsiyga ko'mak beradi.

«Kitobimda bordir shahar sarasi,

Abu Dulaf, Ali Daylam xisasi !

Maqtov bilan ini ayladilar shod

Shodlikdan yuragim bo'lay deb barbod!»... deb yozgan. Firdavsiyning kotibi Ali Daylam-Boysun aymog'idan bo'lganligi ehtimoldan holi emas(K.F).

Gardiziy va uning «Zayn ul-axbor» asari

Mashhur muarrix Abdusaid Abdulxay ibn Zaxxok ibn Maxmud Gardiziy XI asrda yashab o'tgan. Uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumot kam saqlanib qolgan. Nisbasidan uning hozirgi Afg'onistonning shimoliy tarafida joylashgan Gardiz kasabasida tug'ilganligi qayd etiladi. U qo'shni G'azna shahrida istiqomat qilgan va o'zining «Zayn ul-ahbor»(xabarlar bezagi) asarini g'aznaviylar sulolasidan bo'lgan hukmdor Abdurashid ibn Sulton Maxmud davrida(440/1049-444/1053) yozgan. «Zayn ul-axbor» asari tarixiy, geografik va etnografik ma'lumotlarga boy bo'lgan qimmatli manbadir. Fors tilida bitilgan mazkur asar bizgacha faqat ikki qo'lyozma nusxada yetib kelgan bo'lib, ular Angliya kutubxonalarida saqlanmoqda. O'n to'qqiz bobdan iborat bo'lgan kitobning dastlabki yetti bobida bir qator sharq mamlakatlarining eng qadimgi davrlaridan 1041 yilgacha bo'lgan tarixi yoritilgan. Qolgan boblarda musulmonlar, yunonlar, xindlar, yaxudiylar va zardushtiylarning yil hisoblari, bayramlari, ilmu-fanlari va xokazolar bayon qilingan. Shuningdek, alohida bir bob turkiy qavmlar tavsifiga bag'ishlangan.

«Zayn ul-axbor» fors-tilida bir necha bor qisqartirilgan holda nashr qilinib, nihoyat 1968 yilda afg'on olimi Abdulxay Xabibiy tomonidan Texronda asarning to'la nashri amalga oshirildi. Asarning ayrim qismlari ba'zi g'arb tillariga o'girilgan. Turkiy qabilalar haqidagi bob akademik V.V.Bartol'd tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Xuroson tarixiga bag'ishlangan bo'limning A.K.Arends tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasini L.Yepifanova tomonidan nashrga tayyorlanib, 1991 yilda nashr etilgan.

«Zayn ul-axbor»da Chag'aniyon viloyati va uning atrofida ro'y bergan ayrim tarixiy voqealar haqida ham ma'lumotlar bor. O'z davrida siyosiy hayotida katta o'rin tutgan sarkarda va davlat arbobi amir Abu Ali Axmad ibn Abu Bakr Muhammad Chag'oniy haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa, diqqatga sazovoridir.

Asarning Xuroson va Movarounnaxr tarixiga bag'ishlangan bo'limining mazkur hukmdorlar davri tafsiflangan fasllarning tegishli qismlari Abdulxay Xabibiy nashridan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjima matni orasida keltirilgan qavs ichidagi raqamlar asl matnning sahifalariga ishoradir. (

Abdusaid GARDIZIY)

«ZAYN UL-AHROR»dan

Maqtoqli (amir)Abu Muhammad Nux ibn Nasr(davri) (155)...Shundan so'ng Abu Ali Chag'oniy maqtoqli amir (Nux ibn Nasr)ning amakisi Ibrohim va a'yonlar bilan Nishopurga keldi. Ibrohim ibn Simjur va Mansur ibn Qorategin o'z tobelari bilan ketib, Marvga-Nux xuzuriga borishadi.Abu Ali 335 yilning rabi' ul-aval oyida Nishopurdan chiqib Saraxsga keldi.U yerda Marvga qarab yurdi. U Oykon qishlog'iga yetganida, Nuxning sarxanglari va mulozimlaridan ko'plab maktublar keldi. Ular Abu Ali tarafga o'tishga moyl edilar.Abu Ali Marvdan bir farsang masofadagi sang qishlog'iga kelib tushdi. Nux Buxoro tarafga ketdi va Abu Ali Marvga kirib, bir qancha vaqt u yerda bo'ldi.So'ngra u Buxoro tarafga yurdi va Jayxundan kechib o'tdi...

Abu Ali o'z o'g'li Abulmuzaffar Abdullox ibn Axmadni garov tariqasida Buxoroga jo'natdi. Xuddi shunday qilishdi va bu voqea 337 yilning jumodi ul-oxir oyida bo'ldi. Abdulmo'zaffar Buxoroga yetib kelganida maqtoqli amir shaharni bezatib,uni izzat-ikrom bilan shaharga olib kirishni va saroyga joylashtirishni buyurdi. Amir uni o'zining xos dasturxoniga chaqirdi va unga chopon va kulox kiygizishdi. (158)Chag'aniyon viloyati tumanlarida biri bo'lgan Bosandda bir soxta payg'ambar paydo bo'ldi va u Dari Oxaninga keldi. Uning nomi Maxdi bo'lib, payg'ambarlik davosini qildi. 322 yilda u oshkora davat qila boshladi. Ko'plab odamlar uning oldiga borib atrofiga to'planishdi. Bu Maxdi(kamariga)qilich osib olgan bo'lib, kim unga xilof bo'lsa,shu qilich bilan unga hamla qilardi. U bir firibgar odam bo'lib,turli xil makr-xiylalarni bilardi. Chunonchi,qo'lini xovuzdagi suvga tiqar va tortib olganida xovuchi dinorga to'la bo'lardi. Yoki uning dasturxonidan ko'p sonli jamoat ovqat yer,ammo toam aslo kamaymasdi. Uning jomidan butun jamoat suv ichar,ammo u jom bo'shab qolmasdi. Uning xos qavmiga mansub odamlarning har biri kuniga bir dona xurmo yer va bu ularga kifoya qilardi. Bu xabar viloyatlarga tarqalgach, joxil omma orasidan ko'p odamlar unga tomon intilishdi. Buxorodan Abu Ali Chag'aniyga «Ul soxta payg'ambarning ishini bir yoqli qilish chorasini ko'r»-degan mazmunda maktub keldi.

Abu Ali Abu Talxa Ja'far ibn Mardonshoxni(unga qarshi)yubordi.Vardi qishlog'ida bo'lgan Maxdi toqqa chiqib ketdi. Jang qilib, uni qo'lga olib, tog'dan



pastga tushirishdi va boshini kesib, to'rvaga solib Abu Aliga yuborishdi. Abu Ali o'sha paytda Shumonda edi. U kesik boshni (Maxdiga)rag'bat bildirgan barcha odamlarga ko'rsatishni buyurdi va so'ngra Buxoroga jo'natdi. Abulmuzaffar hamon Buxoroda edi. Bir kuni otga minib yurganida ot qoqilib, u otning ustidan uchib tushdi va boshi bir toshga tegib, miyasi otilib chiqib o'ldi. Maqtovli amir g'oyat g'ussa chekdi va uni qimmatbaxo kafanga o'rab, jasaki solingan tobutni Chag'aniyonga jo'natdi. Shuningdek, maqtovli amir Nasr sharobdorni ta'ziya uchun Abu Ali huzuriga yubordi. Abulmuzaffarning vafotidan so'ng ikki oy o'tgach, Mansur ibn Qorategin Nishopurda o'ldi. Maqtovli amir Xuroson spoxsalarligini Abu Ali Chag'aniyga berib, unga yorliq va bayroq yubordi. Chag'aniyon va Termizni uning o'g'li Nasr ibn Ahmadga berdi. Abu Ali 340 yilning zulhijja oyida Nishopurga keldi. 341 yilda Xurosonning barcha ishlarini tartibga soldi. 342 yilda Rayga yurish qildi va bu shaharda Xasan Buyani qamal qildi. Vushmagir ibn Ziyor Xasan Buyaga madad yubordi, ammo ular bir ish qila olmadilar. O'sha vaqtda Rayda otlar orasida o'lat paydo bo'ldi va otlar qirilib, ozayib qoldi. So'ngra ba'zi kishilar ikki O'rtada vositachi bo'lib sulx tuzishdi. Xasan Buya har yili ikki yuz ming dinor to'laydigan va Abu Ali qaytib ketadigan bo'ldi. Xasan Buya bu xirojga garov tariqasida Abbas ibn Dovudni Abu Ali huzuriga jo'natdi va Abu Ali Nishopurga qaytib ketdi. Maqtovli amir «Abu Ali Xasan Buya(tarafi)ga moyil bo'lmaganmikan», -deb shubha qildi. Abu Ali (159)odam yuborib ahvolni ma'lum qildi. Ammo maqtovli amir g'azabidan tushmadi. Shundan so'ng, Abu Ali Chag'aniy Nishopur shayxlari, shoxid kishilar va a'yonlarni o'zuzrini aytish, barcha ahvolni ma'lum qilib, maqtovli amir shubhalanayotgan narsada o'zining begunohligini bildirish uchun Buxoroga jo'natdi. Ammo Nishopurdan jo'natilgan ishonchli vakillar Buxoroga yetgunicha bo'lmay, maqtovli amir kasalga chalinadi va ahvoli tobora og'irlashib, 343 yilning rabi'-ul avval oyida o'sha kasallikdan vafot qildi.

Sharafiddin Ali YAZDIY «Zafarnoma»dan

Amir Xusayinning amir Bayon Sulduz bilan jang qilmoqqa cherik tortgani va amirlardan madad so'ragani haqida so'z.(v.97a). Amir Kazaganning nevarasi amir Xusayn zudlikda Qobuldan o'tlanib, amir Bayon Sulduz bilan jang taraddudiga tushdi, lashkarni tuzish va qurollantirishga kirishdi hamda elchi yuborib, hazrat Sohibqiron, amir Boyazid jaloyir va amir Xizr Yasavuriydan yordam so'radi. Ular kengashib olganlaridan so'ng, ushbuni to'g'ri topdilar: Xazrat Sohibqiron va amir Yasavuriy (ikkovlari) amir Xusayinning iltimosini qondiradigan bo'ldilar. Amir Boyazid esa Jata amirlarida tuxmat va yomonlik qilmoqqa majol qolmasin, degan maqsadda, Tug'luk Temurxon tomon yurmoqni

ma'qul deb topdi. Amir Boyazid ushbu rejaga ko'ra yo'lga chiqdi. Xo'jand viloyatiga yetganida, Tug'luk Temurxonning barcha lashkarlari bilan yana qaytib kelganligi va Chu suvi bo'yida o'z urug'i bilan birikkanligi xabarini eshitgach, mo'ljallagan o'yidan qaytdi va o'sha yerda to'xtab turdi. Boshqa tomondan esa, xazrat Sohibqiron va amir Xizr tartibga keltirilgan lashkar bilan amir Xusaynga yordamga jo'nadilar.

Ular dari Oxanin deb ataladigan Kaxalqadan o'tib, amir Xusayn qoshiga yetdilar va birgalashib Hisori-Shodmon tomon yurdilar. Chunki amir Bayon Sulduz o'sha yerda edi, ularga qarshilik ko'rsatishni o'z imkoniyati darajasida ko'rmagach, qochmoqni ixtiyor qildi va Badaxshon tomon yuzlandi. Ular ketma-ket ta'qib qilib yurdilar. Badashxonga yetganlarida, ul joyning voliysi qochdi va mamlakat amir Xusaynning qo'l ostiga o'tdi.

Xazrat Sohibqironning amir Xusayn bilan jang qilmoqqa cherik tortgani haqida so'z.

Yetti yuz oltmish yettinchi (1365)yilning kuzida, ya'ni ot yili xazrat Sohibqiron son-sanoqsiz lashkar tuzdi...Ularni olib Amir Xusayn bilan urushmoqqa otlandi. Amir Sayfiddinni katta bir gurux bilan mangloy taynlab oldinda jo'natdi. Amir Xusayn(o'z vaqtida)Sher-Baxromni xiyla va aldov yo'ldan ozdirib, makr tuzog'iga ilintirganligi hamda o'ziga mute va qaram qilib olganligi sababli, xazrat Sohibqironni ham o'sha uslubda bo'hton bilan o'ynatish mumkin, degan hayolga bordi, ming afsus. Shu paytda, u Malik baxodir va uning o'g'li Abdulloxni ahdnoma ila ul Xazrat qoshiga jo'natdi va firib beruvchi so'zlardan iborat noma yubordi, ya'ni: «shu paytgacha zarur umumiy masalalarni bir-birimiz bilan ittifoqda g'oliblik to'pini raqiblar va tenglashuvchilar maydonidan yulib oldik. Ma'qul uldurki, bundan keyin ham o'sha udum saqlansa va ushbu ahdnomaga to'la-to'kis ishonib, hech bir dag'dag'a xayolga keltirilmasa».

G'olib lashkar Kaxalqadan o'tib Boysun ularning Xumoyun qo'ningohi bo'lib turgan chog'da (elchilar) Malik baxodir va Abdullox yetib keldilar. Amir Xusaynning ahdnomasi va nomasini yetkazdilar hamda sulx va yarashmoqdan so'z otdilar. Saodatli Sohibqiron fursat bezab turgan davlat ilxomi bilan, Misra:Sening ahdingga sabo yeli ham suyana olmas,(degan mazmunni)anglab etdi. (Shu sababdan),ul ahdnomaga e'tibor bermadi va aytilgan so'zlarga quloq tutmadi. Xazrat Sohibqironning Amir Xusayn ustiga cherik tortgani va parvardigor inoyatining qo'llovi bilan zafar qozonganligi haqida so'z. Amir Xusayn o'z ahdu paymonini buzishni o'ylab yana dushmanlik qasdida ayyorlik nog'orasini nifoq palosi tagida chertayotganligi hamda fursat kutib o'z murodiga hiyla bilan yetishish orzusida ekanligi turli dalil va belgilardan ravshan bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminjonova T.N. Qadimiy yodgorliklar qissasi. – T., «O‘qituvchi».
2. Annayev.T., Shaydullaev.Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. –T. 1997.
3. Berdiyev.X., Ermatov.X. Surxondaryo tarixidan lavhalar.– T., 1991.
4. Usmonov.Q. O‘zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. –T., “O‘qituvchi”, 2003.
5. Tursunov.S.N., Qobulov.E.A., Pardaev.T, Murtozaev.B., va b. Surxondaryo tarix ko‘zglasida. – T., 2001.
6. Tursunov S.N., Qobulov E.A., Pardaev.T, Murtozaev.B., Surxondaryo tarixi. - Toshkent, «Sharq», 2001
7. Buyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. (mualliflar jamoasi) – T.: Sharq, 2001.
8. Пугаченкова.Г.А., Ртвеладзе Э.В., Северная Бактрия Тахаристан проблеми истории и культуры. –Т. «Фан», 1990.
9. Sharafiddin Ali YAZDIY «Zafarnoma»dan.
10. Gardiziy va uning «Zayn ul-axbor» asari
11. Firdavsiyni «Shohnoma» da –Boysun aymog‘i ta‘rifi
12. S.Tursunov, Q.Rashidov “Boysun” Akademnashr nashriyoti, 2011-yil;